PEDAGOGIKA

UDK: 37.016:377:78 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a12**

MUSIQA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

MODERN APPROACHES TO PROFESSIONAL TRAINING OF MUSIC TEACHERS

[1]Abdusattorov Abdujalil Abduvali o‘g‘li
[1]Farg‘ona davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti, vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyati mohiyati va mazmuni, o‘qituvchi faoliyatining modeli komponentlari: konstruktiv komponent, kommunikativ komponent, tashkiliy komponenti mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek musiqa fani o‘qituvchisi qobiliyatlari tavsifi keltirilgan.

Аннотация

В данной статье раскрыты сущность и содержание педагогической деятельности учителя музыки, компоненты модели деятельности учителя: конструктивный компонент, коммуникативный компонент и организационный компонент. Также дано описание навыков учителя музыки.

Abstract

In this article, the nature and content of the pedagogical activity of a music teacher, the components of the teacher's activity model: the constructive component, the communicative component, and the organizational component are explained. A description of the skills of a music teacher is also given.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, qobiliyat, konstruktiv komponent, kommunikativ komponent, tashkiliy komponent mohiyati musiqa fani o‘qituvchisi qobilyati.*

Ключевые слова: *будущий учитель музыки, педагогическая деятельность, способности, конструктивный компонент, коммуникативный компонент, организационный компонент, способности учителя музыки.*

Key words: *future music teacher, pedagogical activity, ability, constructive component, communicative component, organizational component, the ability of a music teacher.*

KIRISH

Bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishining samaradorligi uning kasbiy kompetentsiyada bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy musiqa fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyati ko‘p qirraliligi va zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Bolalarga musiqa, uning shakllari va janrlari haqida qiziqarli ma’lumot berish, yuqori kasbiy darajada qo‘shiqlarni o‘rgatish va ijro etish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish, cholg‘u asboblari yordamida qo‘shiqlarni hamda dasturda keltirilgan asarlarni malakali ijro etish, nazariy bilimlarni qulay va qiziqarli shaklda taqdim etish kabi vazifalar kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

B.V.Asafyev ushbu hodisaga quyidagi fikrni beradi: “Maktabdagi musiqa fani o‘qituvchisi musiqaning aniq biron bir sohasida “mutaxassis” emas, birinchi navbatda musiqa haqida nazariy, tarixiy, etnografik ma’lumotlarga ega bo‘lishi hamda ma’lum bir cholg‘u asbobida mahoratli ijroga ega bo‘lishi kerak, shunda u har doim e‘tiborni u yoki bu tomonga yo‘naltirishga tayyor bo‘ladi” Musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, shuningdek, maktabda musiqa darsi va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish usullarining xususiyatlari musiqa o‘qituvchisi kasbiga qo‘yiladigan yuqori talablarni belgilaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, musiqa fani o‘qituvchisini pedagogik faoliyatiga ashula, raqs, musiqiy cholg‘u asboblari hamda xor qo‘shiqlari va asosiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish kabi vazifalarni amalga oshirish boshqalar kiradi. Bularning barchasini amalga oshirish ko‘plab bilim va ko‘nikmalarga o‘zlashtirishi kerak:

bolalarni sevish va tushunish, nafaqat darsni o‘tkazish metodologiyasini, uni tashkil etish tamoyillarini va sinfdan tashqari ishlarning xususiyatlarini bilish, maktab o‘quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarga asoslanib ish shaklini tanlash;

musiqa nazariyalari, musiqa tarixi, uslublari va janrlari to‘g‘risida chuqur tushunchaga ega bo‘lish;

bir yoki bir nechta cholg‘u asboblarini chalish qobiliyatiga ega bo‘lish;

darslarni samarali tashkil etish, har bir o‘quvchiga individual yondashish va tegishli o‘quv materiallarini yaratish uchun pedagogika va ta’lim metodlarni tushunish;

ijobiy ta’lim muhitini yaratish, musiqaga qiziqishni rag‘batlantirish va o‘quvchilarni yuqori natijalarga erishishga undash uchun muloqot va ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lish;

Muvaffaqiyatli musiqa fani o‘qituvchisi o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun chuqur bilim, musiqiy ishtiyoq, ijodkorlik va kreativlikni qobiliyatini o‘zida mujassamlashtiradi.

Musiqa fani o‘qituvchisi samarali faoliyat uchun o‘ziga zarur bo‘lgan barcha kerakli kasbiy sifatlarni qanday jamlaydi? Avvalo, o‘qituvchi o‘z kasbining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Musiqiy ta’lim qo‘shiq aytish, raqsga tushish, dirijyorlik qilish, tushuntirish va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi navbatda musiqa fani o‘qituvchisi kasbiy tayorgarlik hamda kasbiy faoliyati jarayonlarida bilim olish va ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimi muhim rol o‘ynaydi. O‘z faoliyatida u musiqa fanining asosiy g‘oyalariga tayanadi, bu uning shaxsiy o‘sishini rag‘batlantiradi va bilimlarni qat’iy o‘zlashtirishga yordam beradi, ularni moslashuvchan va egiluvchan qiladi. Nazariy bilimlar ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchida mavjud nazariy bilimlar va uslubiy yondashuvlar, darsda doimiy ravishda yuzaga keladigan turli xil vaziyatlarning mohiyatiga kirishga yordam beradi O‘qituvchi faoliyatining asosiy mazmuni bir nechta funksiyalarni o‘z ichiga oladi: ta’limiy, tarbiyaviy, tashkiliy va izlanuvchi. Ushbu funksiyalar birlikda amalga oshiriladi, ammo ulardan biri boshqalarga qaraganda ko‘proq namoyon bo‘lishi ham mumkin.

O‘qituvchining faoliyati alohida, ammo o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat. Pedagogik faoliyat muammosini ishlab chiqishda N.V. Kuzmina o‘qituvchi faoliyatining quyidagi modelni taklif qiladi. Ushbu modelda beshta funktsional komponent mavjud: 1) gnostik; 2) loyihaviy (proektsion); 3) konstruktiv; 4) tashkiliy va 5) kommunikativ.

1) Gnostik komponent o‘qituvchining bilim doirasini qamrab oladi. Bu nafaqat fan sohasini chuqur bilish, balki pedagogik munosabat usullarini o‘zlashtirish, talabalar xulq – atvorining psixologik jihatlari to‘g‘risida xabardorlik, shuningdek, shaxs sifatida o‘zini anglash va o‘quv jarayonidagi roli bilan bog‘liq.

2) Loyihaviy (proektsion) komponent kelajakdagi ta’lim va tarbiya vazifalari tushunchalarini qamrab oladi va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan strategiya va usullarni belgilaydi.

3) Konstruktiv komponent ta’lim va tarbiyaning maqsadlariga (masalan dars tashiklillash) yo‘naltirilgan o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida darsni, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni loyihalash hamda maktab dasturlariga muvofiq o‘quv materiallarini tanlash katta o‘rin tutadi. Ushbu komponent o‘qituvchining shaxsiy sifatlariga ma’lum talablarni qo‘yadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning chuqur bilimlarni doimiy ravishda o‘zlashtirishga erishishi kerak. Shu munosabat bilan o‘qituvchilar muammoli ta'lim va darslarda muammoli vaziyatlarni yaratishga harakat qilishlari kerak bo‘ladi.

4) Kommunikativ komponent o‘qituvchining kommunikativ faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning o‘quvchilar bilan hamkorligini o‘z ichiga oladi. U nafaqat o‘quvchilar, balki ota-onalar, ma’muriyat va hamkasblar bilan munosabatlarni o‘rnatish va saqlashni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati uning faoliyatining konstruktiv va tashkiliy jihatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, o‘quv jarayonida o‘quvchining hissiy qulayligi uchun juda muhimdir.

5) Tashkiliy komponent bu o‘qituvchining o‘z faoliyatini, shuningdek o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish qobiliyatlari tizimi sanaladi.

Pedagogik faoliyat tarkibida tashkiliy faoliyat ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu komponent konstruktiv komponent bilan ajralmas birlikni tashkil qiladi. O‘qituvchi dars davomida o‘tkazishni rejalashtirgan barcha jarayonlar uning butun o‘quv jarayonini tashkil etish qobiliyati bilan birlashtirilishi kerak.

Tashkiliy komponent uchta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: taqdimotni tashkil etish; darsda o‘zini tutishini tashkil qilish; bolalar faoliyatini tashkil etish, ularning bilim sohasini doimiy ravishda faollashtirish.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik faoliyatning asosiy va yakuniy natijasi o‘quvchining shaxsini, qobiliyat va kompetentsiyalarini rivojlantirish sanaladi.

Har bir o‘quvchi shaxs sifatida o‘ziga hos bo‘lganligi sababli, pedagogik faoliyat ijodiy ko‘rinishga ega bo‘lishi uni samardorligini ta’minlaydi.

A.I. Shcherbakov, yuqorida ko‘rsatilgan tarkibiy qismlardan tashqari, pedagogik faoliyatda qo‘shimcha tomonlarni ajratib ko‘rsatadi. Bular:

1) axborot bilan ishlash (materialga ega bo‘lish va uni taqdim etish rag‘bati);

2) rivojlantiruvchi (o‘quvchi shaxsini rivojlantirishni boshqarish);

3) orientatsion (shaxsning yo‘nalishi, uning motivlari, ideallari);

4) mobilizatsion (o‘quvchining aqliy faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqilligini rivojlantirish);

5) izlanuvchanlik (pedagogik jarayonda ijodiy izlanish, tajriba o‘tkazish, tajribani umumlashtirish va o‘z mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish qobiliyati).

Pedagogik faoliyat - birinchidan, o‘quv faoliyatini boshqarish vositasi, ikkinchidan, o‘quvchining ongini tushunishni tashkil etishdir. Bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonining tezligi, chuqurligi, osonligi hamda mustahkamligi qobiliyatlarga bog‘liq, ammo qobiliyatlar bilim yoki ko‘nikma sifatida ko‘rilmaydi.

Qobiliyat tushunchasi ikkita asosiy toifani o‘z ichiga oladi: umumiy va maxsus qobiliyatlar.

1. Umumiy qobiliyatlar: Ushbu qobiliyatlar umumiy va keng shaxsiy xususiyatlar sanaladi. Ular turli xil bilim va faoliyat turlarini o‘zlashtirishda nisbatan samaradorlikka hissa qo‘shadilar. Umumiy qobiliyatlar hayot va faoliyatning turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, mantiqiy fikrlashda, abstrakt (mavhum) fikrlashda, tahlil qilishda, muammolarni hal qilishda, muloqot qilishda va hokazo. Ular odamga ma’lum bir sohadan qat’iy nazar, turli xil vazifalarni moslashishga va muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

2. Maxsus qobiliyatlar:

Ushbu qobiliyatlar tor doirada ixtisoslashgan va muayyan faoliyat yoki sohalarda qollanilishga qaratilgan. Masalan, musiqiy qobiliyat, matematik tahlil, vizual idrok, sport faoliyati va boshqalar. Ushbu qobiliyatlar odamni ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi mumkin, bu ularga shaxsiy xususiyatlar orqali yuqori natijalarga erishishga imkon beradi.

Qobiliyat quyidagi darajalarga ajratiladi:

1) reproduktiv (bilim va bajarilanayotgan faoliyatni o‘zlashtirish uchun yuqori mahoratni ta’minlaydi). Ushbu darajada qobiliyatlar mavjud bilim, ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va ko‘paytirishni yordam beradi. Reproduktiv qobiliyati yuqori bo‘lgan odamlar ma’lumotni oson eslab qolishlari va takrorlashlari, shuningdek, oldingi tajribaga asoslangan faoliyat usullari va texnikasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari mumkin. Ushbu qobiliyat darajasi o‘qituvchiga standart yondashuvlar va bilimlarga asoslangan vazifalarni sifatli bajarishga imkon beradi.

2) ijodiy (yangilikni yaratishni ta’minlaydi). Ushbu darajada qobiliyatlar insonning yangi, o‘ziga xos va innovatsion g‘oyalar, echimlar va yondashuvlarni yaratish qobiliyatini belgilaydi. Ijodkorlik darajasi yuqori bo‘lgan odamlar nostandart muammolarni tahlil qilish va hal qilish, shuningdek, turli sohalarda yangi texnika va tushunchalarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Ushbu qobiliyat darajasi innovatsiyalar, rivojlanish va inson faoliyat ko‘rsatadigan sohaga hissa qo‘shish uchun muhimdir.

Musiqa o‘qituvchisi uchun muhim bo‘lgan pedagogik qobiliyatlarning ayrim turlari:

1. Musiqiy kompetentlik: Bu qobiliyat musiqa nazariyalari, uslublari, janrlari, musiqa tarixi va cholg‘u vositalar bila yuqori mahorat bilan foydalanishni anglatadi.

2. Muloqot qobiliyati: ushbu qobiliyat musiqa o‘qituvchisi musiqiy tushunchalar va ko‘rsatmalarni aniq tushuntirib bera olishi, o‘quvchilarni ilhomlantirishi va rag‘batlantirishi uchun kerak.

3. Moslashuvchanlik va individuallashtirish: musiqa fani o‘qituvchisi darslarni turli xil ta’lim uslublariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim.

4. O‘quvchilar ijodini rivojlantirish qobiliyati: bu o‘quvchilarni mustaqil ijod qilish, musiqa yozish, improvizatsiya va tajriba o‘tkazishga ilhomlantirish qobiliyatidir.

5. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasini tushunish: musiqa fani o‘qituvchisi turli yoshdagi o‘quvchilarning psixologik idrokining rivojlanishi va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

6. Tashkilotchilik qobiliyati: darslarni, musiqiy tadbirlarni, guruh mashg‘ulotlarini va o‘quv jarayonining rejalashtirish qobiliyati.

7. Sabr va tushunish: musiqa fani o‘qituvchisi o‘quvchilarning turli xil musiqiy tanlovi va qobiliyatlariga sabrli bo‘lishi kerak.

8. Motivatsion ko‘nikmalar: o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini saqlab qolish, ularga qiyinchiliklarni yengishga va musiqiy ko‘nikmakarini rivojlanishga yordam berish qobiliyati.

9. Jamoada ishlash: muvaffaqiyatli o‘quv jarayonini tashkillash uchun hamkasblar, ma’muriyat va ota-onalar bilan samarali munosabatda bo‘lish muhim.

10. Pedagogik kreativlik: qiziqarli va innovatsion darslarni yaratish, musiqani o‘rganish jarayonini qiziqarli va tarbiyaviy qilish uchun turli xil texnika va yondashuvlardan foydalanish qobiliyati.

Umumiy va pedagogik qobiliyatlardan tashqari, o‘qituvchining faoliyatida uning individual xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Tajribali o‘qituvchilarda yuqorida sanab o‘tilgan qobiliyatlarda tashqari quyidagilar namoyon bo‘lishi mumkin: bolalar aql-idrokining imkoniyatlariga ishonch; darsda o‘rganilgan materialdan maksimal va har tomonlama foydalanish; pedagogik kuzatish, adolat; bolalar jamoasi bilan muloqotdan qoniqish. O‘qituvchi, birinchi navbatda, prognostik qobiliyat kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak, bu psixologiya va pedagogikani chuqur bilishga, o‘quvchini o‘qitishning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyat uchun javobgarlik tuyg‘usiga tayanishi kerak.

O‘quvchilarga nisbatan xushmuomalalik va mehr namoyon bo‘lishi kerak. Undan tasqari musiqa o‘qituvchisi quvnoqlik va optimizmga ega bo‘lishi kerak. Har bir o‘quvchini baholashda adolat muhim ahamiyatga ega, bu o‘zaro munosabatlarni muvaffaqiyatini mustahkamlashga va semantik to‘siqlarni yengib o‘tishga ko‘maklashadi.

Yuqori pedagogik mahoratga ega o‘qituvchilarga xos bo‘lgan xususiyatlarga: o‘z faniga bo‘lgan ishtiyoq, o‘qitish qobiliyatini tinimsiz oshirishga bo‘lgan ishtiyoq, kommunikativ qobiliyatlarning mavjudligi (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan materialni aniq, ifodali taqdim etish), o‘quvchilar oldiga muammoli savollarni qo‘yish qobiliyati, o‘quvchilarga g‘amxo‘rlik qilish, barcha o‘quvchilarni qobiliyatlariga ishonch bilan qarash va boshqalar kiradi.

XULOSA

Shunday qilib bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchisi zamonaviy jarayonda dars berish mobaynida o‘zining pedagogik qobiliyatini aks ettirish uchun o‘qituvchi muloqot san’atiga ega bo‘lishligi, bo‘lajak o‘qituvchi konstruktiv komponent, kommunikativ komponent, o‘quvchilarni qalbini tushunishligi, ijodiy yondashish, ijodkorlik va musiqiy kompetenligi boy bo‘lishligini talab etadi. Shunda yosh bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilari dunyoga o‘zbek musiqa san’atini yangi qirralarini ko‘rsatadi. Undan tashqari musiqa fani o‘qituvchisi aktyorlik qobiliyatiga ega bo‘lsa, mashg‘ulotlarda o‘zini qulay his qilsa, ijodkor va mehnatkash bo‘lsa o‘z vazifalarini samarali bajara oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Асафьев Б. В. Избр. статьи о музыкальном просвещении и образовании. М.—Л., 1965.
2. Апраксина О. А: Современные требования к школьному учителю-музыканту. — В кн.: Музыкальное воспитание в школе. Вып. 15. М„ 1982.
3. Абдуллин Э. Б. Методы новой системы музыкального обучения. — В кн.: Выбор методов обучения в средней школе. М., 1981..
4. В.А. Сухомлинский. Избранное. – М.: Педагогика, 1991.
5. Апраксина О. А. О возможностях и содержании исследовательской работы учителя-музыканта общеобразовательной школы. — В кн.: Музыкальное воспитание в школе. Вып. 12. М., 1977.
6. Ананьев Б. Г. О соотношении способностей и одаренности.— В кн.: Проблемы способностей/Под ред. В. Н. Мясищева. М., 1962.
7. Крутецкий, В.А. Педагогические способности, их структура, диагностика, условия формирования и развития Текст: учеб. пособие /В.А. Крутецкий и др. – М.: Прометей, 1991. – 112 с.
8. Кузьмина Н. В. Очерки психологии труда учителя. Л., 1967.
9. Зиёмухаммадов.Б. “основны педагогического мастерства” Т.. “МЕДИЦИНСКАЯ КНИГА”